

**TURIZM KLASTERLARINING TASHKILIY-IQTISODIY  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI**

**Abriyev Zoirjon Sobirjonovich**

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Turizm va mehmonxona biznesi kafedrası  
katta o‘qituvchisi, PhD*

**Annotatsiya:** *Mazkur tezisdá turizm klasterlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Unda turizm klasterlarining iqtisodiy mohiyati, ularning hududiy rivojlanishdagi o‘rni va samaradorligini oshirish omillari tahlil qilingan. Shuningdek, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni kengaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta‘minlash kabi ustuvor yo‘nalishlar asoslab berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *turizm, klaster, mexanizm, infratuzilma, investitsiya, innovatsiya, raqamlashtirish, boshqaruv, marketing, samaradorlik, barqarorlik, raqobatbardoshlik.*

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy integratsiya sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu soha nafaqat mamlakatlar iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltiradi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan turizmni samarali tashkil etish va boshqarish masalalari, ayniqsa, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish zarurati ortib bormoqda.

So‘nggi yillarda turizmni rivojlantirishda klaster yondashuvi keng qo‘llanilmoqda. Turizm klasterlari bir hududda joylashgan o‘zaro bog‘liq subyektlar — mehmonxonalar, transport xizmatlari, ovqatlanish korxonalari, madaniy obyektlar va boshqa infratuzilma elementlarining yagona tizim sifatida faoliyat yuritishini ta‘minlaydi. Bu esa xizmatlar sifatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish hamda umumiy iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, turizm klasterlarining mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hali to‘liq mukammal emas. Xususan, boshqaruv tizimidagi kamchiliklar, investitsiya jalb etishdagi muammolar, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi mazkur sohaning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli turizm klasterlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish va samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Turizm klasterlari zamonaviy iqtisodiyotda hududiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Ularning samarali faoliyat yuritishi, avvalo, puxta ishlab chiqilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarga bog‘liqdir. Mazkur mexanizmlar

turizm subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tartibga solish, resurslardan samarali foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu sababli ularni takomillashtirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Birinchiidan, turizm klasterlarini boshqarish tizimini takomillashtirish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Amaliyotda ko‘plab klasterlarda boshqaruv tizimi markazlashmagan yoki yetarli darajada koordinatsiyalashmagan bo‘ladi. Natijada klaster ishtirokchilari o‘rtasida axborot almashinuvi sustlashadi va umumiy strategik maqsadlarga erishish qiyinlashadi. Shu bois klasterlarni boshqarishda yagona koordinatsion markaz tashkil etish, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, boshqaruvda zamonaviy menejment usullarini joriy etish zarur.

Ikkinchiidan, investitsiya muhitini yaxshilash va moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish alohida ahamiyatga ega. Turizm klasterlarining rivojlanishi ko‘p jihatdan investitsiya oqimlariga bog‘liq bo‘lib, infratuzilma, servis sifati va innovatsiyalarni joriy etish aynan moliyaviy resurslar bilan ta‘minlanadi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat tomonidan soliq imtiyozlari va subsidiyalar berish, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini keng joriy etish muhim hisoblanadi.

Uchinchiidan, turizm infratuzilmasini kompleks rivojlantirish zarur. Klaster samaradorligi transport, aloqa, mehmonxona xo‘jaligi, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, zamonaviy logistika tizimlarini joriy etish, hududlararo transport aloqalarini yaxshilash, turistik obyektlarning qulayligi va jozibadorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Infratuzilmani rivojlantirish orqali turistlar oqimini ko‘paytirish va xizmatlar sifati darajasini oshirish mumkin.

To‘rtinchiidan, raqamli texnologiyalarni joriy etish turizm klasterlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bugungi kunda raqamli platformalar, onlayn bron qilish tizimlari, virtual turlar, mobil ilovalar va sun‘iy intellekt asosidagi xizmatlar turizm sohasida keng qo‘llanilmoqda. Shu sababli turizm klasterlarida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, yagona axborot platformalarini yaratish, marketing faoliyatini internet orqali kengaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Beshinchiidan, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish zarur. Turizm sohasida xizmatlar sifati ko‘p jihatdan inson omiliga bog‘liq bo‘lib, malakali mutaxassislar yetishmasligi klasterlarning samarali faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash, amaliy o‘quv dasturlarini joriy etish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va tatbiq etish muhim hisoblanadi.

Oltinchiidan, marketing strategiyalarini takomillashtirish va turizm mahsulotlarini ilgari surish mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi. Turizm klasterlarining muvaffaqiyati nafaqat ichki tashkil etish darajasiga, balki tashqi bozorlarda qanchalik samarali targ‘ib qilinishiga ham bog‘liq. Shu sababli milliy va hududiy turizm brendlarini shakllantirish,

xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalarda faol ishtirok etish, zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish zarur.

Yettinchidan, institutsional-huquqiy bazani takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm klasterlarining samarali faoliyati uchun aniq me‘yoriy-huquqiy asoslar mavjud bo‘lishi lozim. Qonunchilikni takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoitlar yaratish orqali klasterlar rivojini jadallashtirish mumkin.

Turizm klasterlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda yuqorida qayd etilgan yo‘nalishlardan tashqari yana bir qator muhim omillarni hisobga olish zarur. Avvalo, hududiy ixtisoslashuv va resurs salohiyatidan oqilona foydalanish masalasiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Har bir hudud o‘zining tabiiy-geografik, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ega bo‘lib, turizm klasterlarini shakllantirishda aynan shu jihatlar asosiy ustunlik sifatida qaralishi kerak. Masalan, ayrim hududlarda ekologik turizmni, boshqalarida madaniy-meros turizmni yoki sog‘lomlashtirish turizmni rivojlantirish orqali klaster samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va turistlar oqimini yil davomida barqaror saqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, turizm klasterlarida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish muhim yo‘nalishlardan biridir. Innovatsiyalar nafaqat yangi xizmat turlarini yaratish, balki mavjud xizmatlarni takomillashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlar ehtiyojlarini yanada to‘liq qondirish imkonini beradi. Shu bois startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion markazlar tashkil etish hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali klasterlarning innovatsion salohiyatini oshirish mumkin. Bundan tashqari, turizm klasterlarida kooperatsiya va integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish zarur. Klaster ishtirokchilari o‘rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish, yagona xizmat zanjirini shakllantirish hamda qo‘shilgan qiymat yaratish tizimini rivojlantirish orqali umumiy samaradorlikni oshirish mumkin. Ayniqsa, kichik biznes subyektlarini klaster tizimiga faol jalb etish, ularning o‘zaro hamkorligini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm xavfsizligini ta‘minlash ham tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Turistlar uchun xavfsiz va qulay muhit yaratish, sanitariya-gigiyena talablariga rioya etish, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rish kabi choralar klasterlarning jozibadorligini oshiradi. Bu borada xalqaro standartlarga mos keluvchi xavfsizlik tizimlarini joriy etish muhimdir.

Yana bir muhim jihat – ekologik barqarorlikni ta‘minlashdir. Turizm faoliyati ko‘pincha tabiiy resurslardan intensiv foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, bu ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish, ekologik toza texnologiyalardan foydalanish, chiqindilarni boshqarish tizimini rivojlantirish orqali turizm klasterlarining barqaror rivojlanishini ta‘minlash lozim. Shuningdek, turizm klasterlarida xizmatlar sifatini standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini rivojlantirish zarur. Xizmatlar sifatining barqarorligi turistlar ishonchini oshiradi va

ularning qayta tashrif buyurish ehtimolini kuchaytiradi. Shu bois xalqaro standartlarga mos xizmat ko‘rsatish tizimini joriy etish, sifat nazoratini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya almashinuvini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Klaster ishtirokchilari o‘rtasida tezkor va samarali axborot oqimini ta‘minlash, statistik ma‘lumotlar bazasini yaratish, tahliliy monitoring tizimlarini joriy etish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirish mumkin. Bundan tashqari, turizm klasterlarining eksport salohiyatini oshirish masalasi ham dolzarbdir. Xalqaro turizm bozoriga chiqish, xorijiy turistlarni jalb qilish, milliy turizm mahsulotlarini global darajada ilgari surish orqali mamlakat iqtisodiyotiga valyuta tushumlarini ko‘paytirish mumkin. Bu borada xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama kelishuvlarni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Umuman olganda, turizm klasterlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish ko‘p qirrali va uzluksiz jarayon bo‘lib, u innovatsiyalarni joriy etish, hamkorlikni kuchaytirish, ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish hamda global tendensiyalar asosida rivojlanishni taqozo etadi. Bu esa turizm sohasining barqaror o‘shishini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, turizm klasterlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Turizm klasterlari hududiy resurslardan samarali foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, turizm klasterlarini samarali rivojlantirish uchun boshqaruv tizimini takomillashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish kabi yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, ekologik barqarorlikni ta‘minlash, xizmatlar sifatini standartlashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, turizm klasterlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini kompleks va tizimli ravishda takomillashtirish orqali ushbu sohaning raqobatbardoshligini oshirish, uning milliy iqtisodiyotdagi ulushini kengaytirish hamda barqaror rivojlanishini ta‘minlash mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, Toshkent, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori, Toshkent, 2017.
3. Mamatqulov X. Turizm iqtisodiyoti, Iqtisodiyot nashriyoti, Toshkent, 2018, 256 b.
4. Qodirov A. Hududiy iqtisodiyot va turizm rivoji, Fan nashriyoti, Toshkent, 2020, 312 b.
5. Rasulov A. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalalari, Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 2021, №3, 45–52-betlar.
6. Abdurahmonov Q. Iqtisodiyot nazariyasi, Mehnat nashriyoti, Toshkent, 2019, 400 b.